

Siz — Nukus markazidasiz

TOP-14

Nimalar qilish mumkin?

- I.V. Savitskiy nomidagi San'at muzeyini kashf qilish — bu maskan «Qoraqalpoq Luvri» yoki «Cho'ldagi Ermitaj» deb ham ataladi
- Qoraqalpog'iston tarixi va madaniyati muzeyiga kirish
- Berdaq nomidagi Milliy muzeyda Qoraqalpog'iston madaniyati haqida ko'proq bilish
- Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida spektakl tomosha qilish
- Markaziy bozordan esdalik sovg'alari va mahsulotlar xarid qilish
- Sazan, pyostrik va karaslar sotiladigan hamda pishirib beriladigan baliq bozorida bo'lish

Nukusdan tashqaridagi TOP ishlar

- Yo'qolib borayotgan Orol dengizini ko'rish va sobiq port shahri Mo'ynoqda kemalar qabristoni, Orol dengizi muzeyi va tashlandiq baliq konservalash zavodini tomosha qilish
- Mo'ynoqda o'tkaziladigan an'anaviy «Orol baliqlaridan 99 xil taom» gastronomik festivalida to'yib baliq yeyish
- Orol dengizi tubiga jip sayohatiga chiqish
- Rang-barang va g'ayrioddiy qoyalarga boy Ustyurt platosiga jip-tur uyushtirish
- Mahalliy hunarmandchilik — o'tov yasash san'atini o'rganish va uyshi ustalar bilan tanishish
- O'tov lagerida tunab qolish va yulduzli osmon ostida hordiq chiqarish
- Arxeologik yodgorliklar: qadimgi Xorazm poytaxti bo'lgan Tuproqqal'a, Qizilqal'a va Ayazqal'a xarobalarini kashf qilish
- 25 asrlik qadimiy Mizdakhan qabristonida «Dunyo soatlari» yoki «Qiyomat soati» haqidagi afsonani o'rganish



CENTRUMAIR

 **CENTRUM**
HOLIDAYS

Aral Sea
МОЙНАК 1960
МОЙНАК



Nimalarni olib kelish mumkin?

- «Shogirme» qoraqalpoq milliy bosh kiyimi
- An'anaviy musiqiy asboblari — dutar, girjek va boshqalar
- Mahalliy naqshli mato yoki liboslar
- Qurt
- Mahalliy ustalar yasagan pichoqlar



Nimalarni tatib ko'rish mumkin?

- Baliq va qoraqalpoq milliy taomi — qarma
- Patir — jumladan, qovurilgan piyozli yupqa qatlama non
- Aqsaulaq — shu nomdagi yupqa xamiridan tayyorlanadigan milliy taom
- Jugeri gurtik — suli unidan tayyorlanadigan xamirli taom
- Qarashay — qoraqalpoqlarga xos sutda damlangan choy, ba'zida asal yoki yog' qo'shiladi

